

MAKTABDA TIL NORMALARINI O‘TISH (FONETIK, GRAMMATIK, LISONIY NORMA)

Safarova Madina

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440357>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabda til normalarini o‘tish (fonetik, grammatik, lisoniy norma) va tilning kishilar o‘rtasidagi aloqa va fikr almashish quroli ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, maktab, grammatika, adabiy til normasi.

ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКОВЫМ НОРМАМ В ШКОЛЕ (ФОНЕТИЧЕСКИЕ, ГРАММАТИЧЕСКИЕ, ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ НОРМЫ)

Аннотация. В данной статье речь пойдет о прохождении языковых норм в школе (фонетических, грамматических, языковых норм) и о том, что язык является инструментом общения и обмена идеями между людьми.

Ключевые слова: родной язык, школа, грамматика, нормы литературного языка.

TEACHING LANGUAGE NORMS AT SCHOOL (PHONETICAL, GRAMMAR, LINGUISTIC NORMS)

Abstract. This article discusses the transition of language norms at school (phonetic, grammatical, linguistic norm) and the fact that language is a weapon of communication and exchange of ideas between people.

Keywords: mother tongue, school, grammar, literary language norm.

Maktab ona tili kursi o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy ma’lumotlarni o‘quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasiga mos ravishda ularga yetkazishga xizmat qiladi. Maktabda o‘quvchilar onaa tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o‘ta zarur bo‘lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi.

Bugungi kunda o‘zbek tilining turli sathlarini tadqiq qilish bo‘yicha bir qator yutuqlarga erishilgan, qator darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Badiiy matnlarda til birliklarining qo‘llanilishi, asar muallifining madaniy-ma’naviy dunyoqarashiga, tafakkuri, o‘zini o‘rab turgan obyektiv voqelik faktlariga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi [1].

Til o‘qitishda grammatikaning o‘rni eng ko‘p munozaraga sabab bo‘luvchi mavzu hisoblanadi. Tildan malakali foydalanish uchun nafaqat uning grammatik qoidalarini, balki, qoidalar jonli muloqot jarayonida qanday qo‘llanishini bilish ham kerak bo‘ladi.

Maktab ta’limi hozirgi ona tili zaminida qurilgan. Hozirgi ona tilida amal qilinayotgan qonuniyatlar qisqa bir davrning mahsuli emas, aksincha, ular tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasidir. Tilning hozirgi taraqqiyotini to‘g‘ri tushunish uning tarixini o‘rganishni taqozo etadi [2].

So‘nggi yillarda grammatika til o‘qitish dasturlarida yana o‘z o‘rniga bo‘ldi. Tilni va uning grammatikasini o‘rganishda, avvalo, maktab, yetuk kadrlar, malakali metodistlar va darsliklarning o‘rni beqiyos.

Til normasini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganish o‘zbek tili nutq madaniyati muammolarini nazariy jihatdan asoslashning muhim shartlaridan biridir. Chunki “til normasi nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir”.

“Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til normalarining umumiy holatini, undagi turg‘un va noturg‘un hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish, adabiy-normatik tavsiyalar berish aslo mumkin emas”.

O‘zbek tili nutq madaniyatiga bag‘ishlangan ishlarda gap ko‘pincha nutqimizda uchraydigan kamchiliklar haqida boradi. Lisoniy birliklarni xuddi shu shaklda qo‘llash kamchilik ekanligini nimaga asoslanib aytamiz? Tilshunoslikda mana shunday qo‘llanishning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatuvchi ma’lum o‘lchov bo‘lishi kerak. Bu o‘lchov adabiy til normasidir. “Norma bu til birliklarini o‘zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til qurilishining amalda bo‘lgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til sistemasining yagonaligiga erishish yo‘lida odamlarga biron variantini ma’qul ko‘rish, boshqasidan voz kechish istagini tug‘diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo‘lidagi intilishi bilan birgalikda til normasi milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko‘tarilib, mustahkamlanib boradi [3].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi. Til jamiyat a‘zolari o‘rtasida aloqa-aralashuv vositasi, fikrlash mahsuli hisoblanadi.

REFERENCES

1. Siddiqova Sh. Xalq og‘zaki ijodiyoti milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 2015. B. 126-127.
2. Roziqov O va b. Ona tili didaktikasi. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005. B. 72.
3. Adabiy til normalari. Arxiv.uz.